

# Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

## X-LSX-2022. -sonli SHARTNOMA

Samarqand\_sh.

“15” 06. 2022-yil

Bundan buyon Buyurtmachi deb ataluvchi “Samarqand viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi” nomidan nizom asosida ish yurituvchi Bosh boshqarma boshlig‘i **N.Sanaqulov** orqali va bundan buyon Bajaruvchi deb ataluvchi "**YO’L-LOYIHA BYUROSI**" MChJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi bosh direktor v.b. **G. Muhibbinov** orqali O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ning topshirig‘i bo‘yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: 15-iyun dagi **Samarqand viloyati AYBBning 12-** sonli **yig‘ilish bayoni asosida 2022-yil** Samarqand viloyati umumfoydalanuvdag‘i xalqaro ahamiyatiga ega avtomobil yo‘llarini joriy ta’mirlash ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Mázkur loyiha-smeta hujjalrini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolangandan so‘ng G‘aznachilikda ro‘yxatga olingan kundan boshlanadi.

### 2. Shartnoma bahosi va to‘lov qoidalari

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan **78 137 950 (etmish sakkiz million bir yuz uttiz yetti ming tukkiz yuz ellik) so‘mni** tashkil qiladi.

2.2 Buyurtmachi shartnomani G‘aznachilik ro‘yxatidan o‘tgan kundan boshlab 10 (o‘n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 % miqdorida avans to‘lovini amalga oshiradi

2.3. Ishlar qiymatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda yoki ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda shartnoma bahosi o‘zgartirilishi mumkin.

2.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko‘rsatilgan ko‘chalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag‘i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.4. Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so‘ng 15 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga haq to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

2.5. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda; ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda.

### 3. Tomonlar majburiyatları

3.1. Bajaruvchi ishlarni dastlabki ma‘lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o‘z zimmasiga oladi.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma‘lumotlar va materiallarni Bajaruvchiga taqdim qiladi.

3.3. Buyurtmachi shartnomada ko‘zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to‘lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko‘rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko‘rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko‘zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, Bajaruvchining roziligidan shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma‘lumotlarni tarqatmaslikni o‘z zimmasiga oladi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan avans to‘lovlar o‘z vaqtida o‘tqazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma‘lumotlar va materiallarni Bajaruvchining talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to‘ovi va ma‘lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.5. Ushbu shartnoma bo‘yicha Bajaruvchi o‘z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo‘sishicha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o‘z hisobidan qaytadan bajaradi.

3.6. Mazkur shartnomaning 2.4-bandи bajarilmagan holda Bajaruvchi buxgalteriya hisob-kitoblarini o'zaro solishtirish dalolatnomasi yoki bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari asosida undirishga to'liq haqli.

#### **4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi**

4.1. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan holda topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnomalari tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqt hisoblanadi.

#### **5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash**

5.1. Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

#### **6. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

6.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

6.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatları bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilib muhokama qiladilar.

6.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

#### **7. Qo'shimcha shartlar**

7.1. Bajaruvchi loyihani muddatidan oldin bajargan holda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovnini amalga oshiradi.

7.2. O'zaro muloqot yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonun hujjatlarida o'rnatalgan tartibda hal qilinadi.

7.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

7.4. Bajaruvchi mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, Buyurtmachini xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

7.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlari va Bajaruvchining obekt bo'yicha bajargan ishlari nisbatan qo'llaniladi.

7.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

Kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shahar iqtisodiy sudida e'tiroz tartibiga rioxal qilgan holda, ko'rib chiqiladi. E'tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko'rib chiqish muddati e'tiroz bildirilgan tomon olganidan keyin 15 (o'n besh) kun muddatni tashkil etadi. Mazkur shartnomaga bo'yicha nizo kelib chiqqan hollarda qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

7.7. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,04 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy so'mmasi shartnomaga narxining 10 foizidan oshmasligi lozim.

7.8. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,04 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan ishlar qiymatining 10 foizidan oshmasligi lozim.

7.9. Mazkur shartnomaga bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

7.10. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- Loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqiladigan ko'chalar ro'yxati

7.11. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.


7.12. Ushbu shartnomaga o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

7.13 Ushbu shartnomaga amal qilish muddati **"15" 06**. 2022-yildan 31-dekabr 2022-yilgacha

#### Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

<b>«BUYURTMACHI»</b> <b>Nomi:</b> Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi <b>Manzili:</b> Samarqand sh. Nabieva ko'ch 3-uy <b>Shaxsiy x/r:</b> 304510860184017045151118001 <b>STIR (INN):</b> 200711637 <b>XXTK (OKNX):</b> 97400 <b>Tel/faks:</b> 234-26-08, 243-26-59 Moliya Vazirligi Gaznachiligi <b>X/r:</b> 23402000300100001010 <b>Bank nomi:</b> Markaziy bank XKKM Toshkent shahar boshqarmasi <b>Manzil:</b> Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni, 1 <b>STIR (INN):</b> 201122919 <b>MFO:</b> 00014 <b>XXTK(OKNX):</b> 97160 <b>Tel:</b> 231-11-52 <b>Imzo:</b>  <b>N.Sanaqulov</b>	<b>“Bajaruvchi”</b> <b>«YO'L-LOYIHA BYUROSI» MChJ</b>  100000, Toshkent sh., M.Ulug'bek tumani Mustaqillik shox ko'chasi, 68-uy Tel: 237-26-01 X/r: 2020 8000 8040 1094 1001 AKIB «Ipoteka-Bank» Yashnobod filiali MFO 00959, STIR 300 112 785 OKONX 66000, IFUT 71110
---	--

Bosh direktor v.b.  G.Muhuddinov



Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)  Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi: **SA 000522**.

Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.) Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi: Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

2022 yil «15» iyun, dagi  
X-LSK-2022 - sonli shartnomaga  
1- ilova

Shartnoma bahosini kelishuvi  
**B A Y O N N O M A S I**

Samarqand viloyati xalqaro ahamiyatiga ega avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish to'g'risida 2022 yil “15” iyun dagi 12-sonli shartnoma bahosi QQS bilan 78 137 950 ( yetmish sakkiz million bir yuz uttiz yetti ming tukkiz yuz ellik ) so'mga kelishildi.

Ushbu bayonnomma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtaida uzaro xisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos xisoblanadi.

**“Buyurtmachi”**

**Nomi:** Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi

**Manzili:** Samarqand sh. Nabieva ko'ch 3-uy

**Shaxsiy x/r:**

304510860184017045151118001

**STIR (INN):** 200711637

**XXTK (OKNX):** 97400

**Tel/faks:** 234-26-08, 243-26-59

Moliya Vazirligi Gaznachiligi

**X/r:** 23402000300100001010

**Bank nomi:** Markaziy bank XKKM Toshkent shahar boshqarmasi

**Manzil:** Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni, 1

**STIR (INN):** 201122919

**MFO:** 00014

**XXTK(OKNX):** 97160

**Tel:** 231-11-52

**Boshqarma boshlig'i**

 N. Sanaqulov



**“Pudratchi”**


**"YO'L-LOYIHA BYUROSI" MChJ**

Toshkent shaxar, M.Ulug'bek tumani Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy,  
Tel:237-38-55, faks: 237-36-69  
H/r: 20208000804010941001  
ATIB “Ipoteka-bank”  
Yashnobod bo'limi  
MFO: 00959 INN: 300 112 785  
OKONX: 66000, OKED: 71110



**Bosh direktor v.b.**  G'. Muhuddinov

“TASDIQLAYMAN”  
Samarqand viloyati avtomobil  
yo'llari bosh boshqarmasi  
boshlig'i komissiya raisi



N.Sanaqulov

Samarqand viloyati umumfoydalanuvdag'i xalqaro ahamiyatiga ega avtomobil  
yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish  
bo'yicha o'tkazilgan komissiya yig'ilishi

*Nº 12.* BAYONI

Samarqand shahri

«13» 06. 2022-y.

Raislik qiluvchi

N.Sanaqulov

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Mirzayev Akbar Yusupovich	Komissiya a'zosi, Boshliq o'rinnbosari
Eshmamatov Farruxjon Fayzullayevich	Komissiya a'zosi, bo'limi boshlig'i,
Xodjiyev Shuhrat Nasimovich	Komissiya a'zosi, Bosh hisobchi,
Astanaqulov Dilmurod Sultanovich	Komissiya a'zosi, Bosh mutaxassis,
Obidov Sultonxon Sobidxon o'g'li	Komissiya kotibi, Bosh mutaxassis

**KUN TARTIBI:**

2022-yil Samarqand viloyati umumfoydalanuvdag'i xalqaro ahamiyatiga ega  
avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab  
chiqish bo'yicha.

---

(N.Sanaqulov, A.Mirzayev, F. Eshmamatov, Sh. Xodjiyev, D. Astanaqulov)

Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil  
1-iyunda O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga  
umumfoydalanuvdag'i xalqaro ahamiyatiga ega avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash

ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha lot raqami № 22110012097962 raqami bilan e'lon joylashtirildi.

Mazkur lotlar bo'yicha 2022-yil 8-iyundagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakllangan bayonnomalariga asosan e'lon yakuniga ko'ra komissiya a'zolari tomonidan "**Yol-loyiha byurosi**" MChJ g'olib deb topilganligini inobatga olib:

### **QAROR QILINDI:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomma bo'yicha hech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bosh mutaxassis S.Obidovga:

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022-yil 8-iyundagi elektron bayonnomalariga asosan g'olib "**Yol-loyiha byurosi**" MChJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomaga tuzilsin.

3. Bosh mutaxassis S.Obidov sifat darajasi nazorat qilinsin.

### **Komissiya a'zolari**

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Mirzayev Akbar Yusupovich		Bosh boshqarma boshlig'i o'rnbosari
Eshmamatov Farruxjon Fayzullayevich		Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularning texnik holatini qilish bo'limi boshlig'i
Xodjiyev Shuhrat Nasimovich		Bosh hisobchi
Astanaqulov Dilmurod Sultanovich		Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'limi bosh mutaxassis

Komissiya kotibi, Bosh mutaxassis

S.Obidov